


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 6 **2026**



ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 6 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 6

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 6



TOШKENT-2026

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'МUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№6 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-6>

Бош мухаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Matyakubov Umidjon Raximovich
(i.f.d., prof.)

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudonazarov Egambergan Madrahimovich
(PhD., dots.)

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Boltayev Abdurahim Amanovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Zoirov Erkin Xalilovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации
основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением
№ 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

IQTSOD

1. Boltayev B. Mixliyev O.
QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....7

2. Djumabayeva Sh.
O‘ZBEKISTONDA NIKOH VA AJRALISH JARAYONLARINING IJTIMOY-DEMOGRAFIK O‘ZGARISHLARI.....11

3. Raximov Matqurbon Ravshanbek O‘g‘li.
GLOBALLASHUV SHAROITIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA‘MINLASHNING ZARURATI.....19

4. Rustamboyev Kamronbek Otabek o‘g‘li.
O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASH YO‘LLARI.....24

5. Курбанова Дилфуза Баходировна.
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ОТРАСЛЕЙ СФЕР УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ.....27

6. Egamberdiyev Shoxruxbek Davronbekovich.
KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING XORIJ TAJRIBASI.....33

FILOLOGIYA

1. Jo‘rayeva Muhayyo Abduljalilovna
O‘ZBEK VA INGLIZ SO‘ZLASHUV DISKURSIDA DISKURS MARKERLARINING INTERAKTIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI.....38

2. Raximova Dilfuza Masharip qizi.
“XX–XXI ASR BRITANIYA ROMANLARIDA SHARQ VA G‘ARB BADIY TAFAKKURI SINTEZI”.....42

3. Baxtiyorov Asadbek Dilshod o‘g‘li.
ANTONIO JENKINSON VA UNING XIVA XONLIGIGA TASHRIFI.....46

4. Ювашева Шоира Махаматовна
ВЛИЯНИЕ КУЛЬТУРНЫХ НОРМ НА ФОРМИРОВАНИЕ ЯЗЫКОВОЙ ЛИЧНОСТИ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ.....48

PSIXOLOGIYA

1. Mashhura Sultonova Rustamboyevna.
YETUKLIK YOSHIDAGI AYOLLARDA O‘Z-O‘ZIDAN QONIQISH DARAJASIGA PSIXOLOGIK RESURLAR VA QADRIYATLAR TIZIMINING TA‘SIRI.....52

2. Sherjanova Nodira.
MIGRANT OILALARDA TARBIIYALANAYOTGAN O‘SMIRLARDA PROSOTSIAL XULQ-ATVOR VA EMPATIYA MUNOSABATI.....58

3. Odamova O'g'iljon Kenjayevna. SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING YUZAGA KELISH SABABLARI.....	63
--	----

TARIX

1. Egamberdieva Nigora Azadovna. Raxmatullaeva Azada. XORAZM VOHASIDA ILK DAVLATNING SHAKLANISHI JARAYONINING TAHLILI (ARXEOLGIK VA YOZMA MANBALAR ASOSIDA).....	68
---	----

2. Abdullayev U.I. Kurshat Y. Satimov B. OROLBO'YIDA MUDOFA ISTEHKOMLARNING KELIB CHIQISHI BO'YICHA BA'ZI BIR MULOHAZALAR.....	73
---	----

3. Egamberdiyeva Zulfiya Zafar qizi. OLTIN O'RDA DAVRIDA XORAZMDA IQTISODIY HAYOT.....	78
--	----

4. Бобождонов У. ҚЎЙҚИРИЛГАН ҚАЛЪА АНТИК ДАВР МАДАНИЙ МЕРОС МАРКАЗИ.....	82
--	----

5. Umidbek Abdalov Matniyazovich. Ibodullayeva Oymarjon Shavkat qizi. FROM THE HISTORY OF DIPLOMATIC AND ECONOMIC RELATIONS BETWEEN THE KHIVA KHANATE AND THE RUSSIAN EMPIRE AT THE BEGINNING OF THE 18 th - 20 th CENTURIES.....	86
---	----

PEDAGOGIKA

1. Ismoilova Gulnoza Olimboy qizi. BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING 4 K KOMPETENSIYALARINI RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA RIVOJLANTIRISH.....	91
---	----

2. Yunusxo'jayev Mustafo Zafarxo'ja o'g'li. NAJMIDDIN KUBRO PEDAGOGIK QARASHLARI ASOSIDA TALABALARNING MA'NAVIY-AXLOQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI.....	96
---	----

3. Radjapova Feruza Abdullayevna. PEDAGOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK TASNIFI VA ULARNI PEDAGOGIK TA'LIMGA INTEGRATSIYA QILISH ALGORITMI...106	
---	--

TARIX

Egamberdieva Nigora Azadovna

Toshkent Amaliy fanlar universiteti

Professori, t.f.d.

egamberdievanigora564@gmail.com

Raxmatullaeva Azada

Toshkent Amaliy fanlar universiteti

dotsenti, t.f.n.

Ozodarahmatullayeva@mail.com,

**XORAZM VOHASIDA ILK DAVLATNING SHAKLANISHI JARAYONINING
TAHLILI (ARXEOLOGIK VA YOZMA MANBALAR ASOSIDA)**<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21008807>

Annotatsiya: Qadimgi Xorazm vohasida ilk davlatchilikning shakllanish jarayoni XX asrda keng tadqiqot doirasiga tortilgan. Yozma manbalarni o'rganish asosida "Katta Xorazm" davlati gipotezasi ilgari surilgan. XX asrning 80–yillarida bu gipotezani rad qiluvchi g'oyalar ilgari surildi. Maqola masalaning shu jihati tahlil qilinib, Xorazm vohasining janubiy va shimoliy -g'arbiy qismida ikkita davlat shakllanganligi asoslangan. Ularning shakllanish jarayoniga turli omillar sabab bo'lganligi ko'rsatilib, janubiy Xorazmda tashkil topgan davlat janub aholisining migratsiyasi natijasida, shimoli-g'arbida tashkil topgan davlat esa, mahaliy chorvador aholining o'troqlashishi natijasida tashkil topganligi asoslangan.

Kalit so'zlar: Davlat, migratsiya, Ko'zaliqir, Xazorasp, Amirobod, Xorazm, Amudaryo, ahamoniy, "Katta Xorazm".

Эгамбердиева Нигора Азадовна

Ташкентский университет прикладных наук

Профессор, доктор исторических наук,

egamberdievanigora564@gmail.com

Рахматуллаева Азада

Ташкентский университет прикладных наук

Доцент, кандидат исторических наук,

Ozodarahmatullayeva@mail.com,

**АНАЛИЗ ПРОЦЕССА ФОРМИРОВАНИЯ РАННЕГО ГОСУДАРСТВА В
ХОРЕЗМСКОМ ОАЗИСЕ (НА ОСНОВЕ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ И ПИСЬМЕННЫХ
ИСТОЧНИКОВ)**

Аннотация: Процесс формирования раннего государства в древнем Хорезмском оазисе широко изучался в XX веке. На основе изучения письменных источников была выдвинута гипотеза о существовании государства "Большой Хорезм". В 80-х годах XX века

были выдвинуты идеи, опровергающие эту гипотезу. В статье анализируется этот аспект вопроса на основе того факта, что в южной и северо-западной частях Хорезмского оазиса сформировались два государства. Показано, что к их формированию способствовали различные факторы, и это основано на том факте, что государство, сформировавшееся в южном Хорезме, возникло в результате миграции южного населения, а государство, сформировавшееся в северо-западной части, — в результате расселения местного скотоводческого населения.

Ключевые слова: государство, миграция, Кюзелигир, Хазорасп, Амирабад, Хорезм, Амударья, Ахемениды, “Большой Хорезм.”

Nigora Azadovna Egamberdiyeva

Tashkent University of Applied Sciences
Professor, Doctor of Historical Sciences,
egamberdievanigora564@gmail.com

Azada Rakhmatullayeva

Tashkent University of Applied Sciences
Associate Professor, Candidate of Historical Sciences,
Ozodarahmatullayeva@mail.com,

ANALYSIS OF THE FORMATION OF THE EARLY STATE IN THE KHOREZM OASIS (BASED ON ARCHAEOLOGICAL AND WRITTEN SOURCES)

Abstract: The formation of the early state in the ancient Khorezm oasis was widely studied in the 20th century. Based on the study of written sources, the hypothesis of the existence of a “Greater Khorezm” state was put forward. In the 1980s, ideas refuting this hypothesis were put forward. This article analyzes this aspect of the issue based on the fact that two states emerged in the southern and northwestern parts of the Khorezm oasis. It is shown that different factors contributed to their formation, based on the fact that the state that emerged in southern Khorezm arose as a result of the migration of the southern population, while the state that emerged in the northwestern part arose as a result of the resettlement of the local pastoral population.

Keywords: state, migration, Küzelligir, Hazorasp, Amirabad, Khorezm, Amu Darya, Achaemenids, “Greater Khorezm”.

KIRISH VA DOLZARBLIGI: Mustaqillik yillarda O‘zbekistonda davlatchilikning tashkil topishi va rivojlanishi masalalari davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Davlatning shakllanish jarayoni va tashkil topgan vaqti bo‘yicha masalalar eng ko‘p muhokamaga tortilgan. Keyingi yillarda tarixiy tadqiqot ishlariga yangicha xolis baho berish jarayonida o‘tmish voqealarni yanada chuqur va har tomonlama tadqiq qilish ilgari surilmoqda. Shuningdek, tarixiy – madaniy merosga e‘tibor kuchayib, bu borada mamlakatimizning turizm salohiyatini rivojlantirish borasida ham ko‘plab tadbirlar amalga oshirilmoqda. Zero, “... xalqlarimizning dunyoviy fanlar rivojiga qo‘shgan beqiyos hissasini va boy madaniy merosini chuqur o‘rganish, turli tadqiqotlar olib borish, hamda jahon miqyosida targ‘ib etish katta ahamiyatga ega” -deb ko‘rsatgan prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev [1]. Bu esa, o‘z navbatida qadimda O‘zbekiston hududida mavjud bo‘lgan davlatlarning shakllanishi, rivojlanishi va jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasini yangicha yondashuvlar, tahlillar asosida tadqiq qilish, targ‘ib qilish va tarixiy rivojlanishdagi o‘ziga xoslikni, umumiylikni talqin qilish dolzarb ilmiy ahamiyat kasb etadi.

METODLAR VA O‘RGANILISH DARAJASI: Qadimgi Xorazmda tarixida tadqiqotchilar o‘rtasida eng ko‘p muhokamaga sabab bo‘lgan masala hududda davlatchilikning shakllanish jarayoni hisoblanadi. Xorazm vohasida davlatning paydo bo‘lishi masalasi dastlab XX asrning boshlarida “Avesto”, yunon va rim yozma manbalaridagi ma‘lumotlarni tahlil etish orqali boshlangan [2;4;5].

XX asrning 30–yillaridan O‘zbekistonda boshlangan arxeologik tadqiqotlar, mazkur yozma manbalardagi ma’lumotlarni arxeologik materiallar bilan taqqoslashga imkon bergan. Yozma manbalardagi tadqiqotlar asosida “Katta Xorazm” qabilalar konfederatsiyasi gipotezasi ilgari surildi. XX asr boshlarida “Katta Xorazm” masalasini nemis olimlari I.Markvart, V.Xenning yunon mualliflari Gekatey, Gerodot va “Avesto”da berilgan ma’lumotlari asosida ilgari surishgan edi. “Katta Xorazm” qabilalar konfederatsiyasi bo‘yicha tadqiqot olib borgan olimlar XX asrning 80–yillariga qadar, bu davlatning mavjudligini arxeologik ma’lumotlar asosida isbotlashga harakat qilganlar [12.156; 10.39-41; 23.55-56]. XX asrning 80–yillaridan bu birlashma mavjud ekanligini inkor etuvchi ilmiy g‘oyalar ilgari suriladi [21.118; 7.76-84]. Bu fikr tarafdorlari yozma manbada tilga olingan davlat qabilalalar konfederatsiyasi ekanligini, uning Gerodot ma’lumotida ko‘rsatilgandek, nihoyatda katta hududni egallaganligini shubha ostiga olingan, chunki bu arxeologik jihatdan o‘z isbotini topmagani bilan asoslashgan.

Xorazm vohasida olib borilgan tadqiqotlar asosida mil.avv. VI asrning boshlarida Xorazm vohasida davlat mavjud bo‘lganligi asoslangan bo‘lsada, bu davlatning tashkil topgan vaqti, ta’sir doirasi, poytaxti va xorasmiylar migratsiyasi haqida turli qarashlarni ilgari surganlar.

Ushbu tadqiqot ishida biz voqealarni o‘sha davr nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, tarixiy jarayonlarni o‘zaro bog‘lagan holda yaxlit bir tizim sifatida tahlil qilib, turli hududlardagi voqealarni solishtirgan holda, voqealarni izchil bayon qilib, ularning sabablari va rivojlanish jarayonlarini aniqlab berdik.

NATIJAR VA MUHOKAMA: Mil.avv.VI asrning boshlarida Amudaryoning quyi oqimidagi siyosiy va ijtimoiy vaziyatni tahlil qilsak, shakllanish jarayoniga turli omillar sabab bo‘lgan ikkita siyosiy birlashma, ya’ni davlat tashkil topganligini ko‘rishimiz mumkin. Birinchi davlat Amudaryoning g‘arbiy tomonida tashkil topgan bo‘lib, uning markaziy qismi Ko‘zaliqir yodgorligi bo‘lgan. Ikkinchi davlat esa, janubiy Xorazm hududida shakllangan, markazi Xazorasp bo‘lgan davlatdir.

Qadimgi davrga oid yozma manbalarda aynan, janubiy Xorazmda shakllangan davlat to‘g‘risida yozib qoldirilgan va bunda xorasmiylarning qaerandir ko‘chib kelib, o‘zlarining siyosiy uyushmasini tashkil qilganliklari bayon etilgan. Qadimgi yunon mualliflari Skilak va Gekateyning asarlarida “parfiyaliklardan sharqda xorasmiylar yashaydi”, Gerodotning Akes daryosi va tog‘ vodiysiga qurilgan to‘g‘on, Ahamoniylar davlati 16-satrapligi to‘g‘risidagi va Stefan Vizantiyskiyning “ular Xorasmiya shahri bor” degan ma’lumotlari asosida olimlar xorasmiylar parfiyaliklardan sharqda, ya’ni hozirgi Xorazm xududidan, ya’ni Amudaryo quyi havzalaridan janub tomonda yashaganlar, degan xulosaga kelingan [3;4;9;13]. Bu hududda yashagan aholi ma’lum bir sabablarga ko‘ra, Amudaryoning quyi oqimiga ko‘chib kelgan.

Qadimgi Xorazm hududiga janubda kelgan aholining kelib joylashishiga uch omil sabab bo‘lgan: 1.Murg‘ob daryosining qurishi; 2.Kir II ning bosqini; 3.Doro I ning siyosati[17.81]. Quyi Amudaryo bo‘ylariga kelgan aholi bo‘sh yotgan, lekin dehqonchilik uchun qulay bo‘lgan hududlarni o‘zlashtirganlar. Mahalliy chorvador aholi bilan tinch qo‘shnichilik munosabatlarini olib borganlar. Bu arxeologik tadqiqotlar natijasida o‘z isbotini topgan. Mil.avv. VI asrdan janubiy va g‘arbiy Xorazm hududlarida mustahkam mudofaaga ega bo‘lgan qal’alar va sun’iy sug‘orish tarmoqlari bunyod etilgan [9.25]. Dehqonchilik vohalarining yirik markazlari atrofida chorvadorlarning manzilgohlari qayd qilingan. U Murg‘ob vodiysi, Marg‘iyona va Baqtriyaga davlati aholisi ko‘chib kelishi natijasida vujudga kelgan. Xorazmning janubiy qismida markazi Xazorasp bo‘lgan davlat birlashmasi tashkil topgan.

Mil.avv. VII asrdan Murg‘ob daryosining suvi kamaya boshlagan keyin va aholining asosiy qismi Marg‘iyona va Baqtriyaga axamoniylar hujumidan keyin kirib kelgan. Shu sababdan ham Amudaryoning quyi oqimi axamoniylar yozma manblarida “Xvarazmish” deb atala boshlagan. Tuyamo‘yin havzasi bo‘ylariga ko‘chib kelgan aholi o‘zi bilan shaharsozlik madaniyatini, kulolchilik hunarmandchiligini, diniy e’tiqodini va dehqonchilik madaniyatini olib kelganlar. Janubiy Xorazm vohasida tashkil topgan davlat tadqiqotchilar fikricha, mil.avv. VII asrning oxirlarida shakllana boshlagan. Bu davlat hududi ahamoniylar tomonidan egallanmagan. Axamoniylar Xorazm vohasining g‘arbiy tomonidan hujum uyushtirganlar. Kir II sak va

massagetlarga qarshi kurashib halok bo'lgan bo'lsa, Doro I Ko'zaliqir qal'asiga hujum qilib, uni egallagan. Yozma manbada Doro I egallagan qal'a mustahkam mudofaa ega ekanligi yozib qoldirilgan. Mil.avv. VI asrning birinchi yarmiga oid g'arbiy Xorazm hududida mustahkam mudofaa ega bo'lgan Ko'zaliqir qal'asi aniqlangan. Unda olib borilgan tadqiqotlar natijasida uning ikkita qurilish bosqichi aniqlangan. Birinchi qurilish bosqichida, u 11 gektar hududni egallagan bo'lib, bu bosqichda yong'in izlari aniqlangan. Ikkinchi qurilish bosqichida qal'aning hududi yanada kengaytirilib, 25 gektarni tashkil qilgan. Mudofaa devorining qurilishiga alohida ahamiyat berilgan. Ko'zaliqir qal'asining qurilish uslubi o'ziga xos tarzda bo'lib, u janubda qurilgan Xazorasp qal'asidan farq qilgan. Bu ikki qal'adan topilgan sopol buyumlarning ishlanish uslubi, aholisining turmush tarzi ham farq qilgan. Qo'zaliqir yodgorligida olib borilgan tadqiqotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, bu hududda tashkil topgan davlat mahalliy ildizga ega ekanligini asoslashimiz mumkin. Bunda Amudaryoning Oqchadaryo o'zani bo'ylarida, ya'ni sharqiy Xorazmda mil.avv. IX–VIII asrlarda yashagan Amirobod madaniyati aholisining ta'siri kuzatiladi. Ular bronza davridagi Suvyorgan va Tozabog'yob madaniyatini yaratgan aholining qorishuvi natijasida shakllangan. Amirobodliklarning asosiy xo'jalik mashg'uloti chorvachilik bo'lgan, lekin daryo o'zanidan keng, sayoz kanallar chiqarib dehqonchilik va metallga ishlov berish hunarmandchiligi bilan ham shug'ullanganlar [8.25]. Amirobodliklarning Жонбос -7 ёдгорлигини tadqiq qilganlar [18.68-77]. Mil.avv. VIII–VII asrlarda janubiy Oqchadaryo o'zanida suvning kamaya borishi amirobodliklarning o'z turmush tarzini o'zgartirishlariga sabab bo'lgan [19.115; 22.109-112]. Ularning bir qismi chorvachilik bilan shug'ullanish uchun shimoliy Oqchadaryo va Sirdaryoning qadimiy deltalari bo'ylariga qo'chib ketganlar. Bir qismi esa, ham chorvachilik ham dehqonchilik ho'jaligi bilan shug'ullanish uchun Oqchadaryo o'zaning quyi qismi va Sariqamish bo'yi havzalari ko'chganlar. Ular tomonidan qoldirilgan arxeologik moddiy manbalar juda ko'p hududlardan topilgan. Aynan shu Amirobod madaniyati aholisining ma'lum bir qismi Qo'zaliqir yodgorligiga asos solishgan. Qo'zaliqirning qurilishiga o'xshash bo'lgan yodgorlik Amirobodliklarning Jonbos -7 yodgorligi bilan ham o'xshashlik tomonlari aniqlangan, ya'ni bu ikki yodgorlik aholisi mudofaa devorlarning yo'laklarida iste'qomat qilishgan va bir xil uslubda ishlangan sopol idishlardan foydalanishgan. Ko'zaliqir yodgorligi aholisi sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullangan bo'lsalarda, xo'jaligining asosini chorvachilik tashkil qilgan. Ular o'z chorvasini himoya qilish uchun ikki qator mudofaa devor bilan o'ralgan ulkan "qo'ra" shaklidagi Qo'zaliqir qal'asini bunyod qilganlar.

XULOSA. Xorazm vohasida tashkil topgan davlat tarixi yozma manbalar tahlili va arxeologik tadqiqotlar asosida o'rganilib kelayotgan bo'lasada, ularning tashkil topish sabablari tahlili ilk bor amalga oshirildi. Bunda davlatchilikning tashkil topishi bilan bog'liq barcha tadqiqotlar tahlil qilinib, Xorazm vohasida ikki xil asosda tashkil topgan ikkita davlat deyarli bir vaqtda vujudga kelganligi aniqlandi. Xorazm vohasining janubida tashkil topgan davlatning shakllanishida janubdan ko'chib kelgan dehqonchilik va hunarmandchilik bilan aholining ta'siri bo'lgan bo'lsa, shimoli -g'arbiy tomonida tashkil topgan davlat mahalliy asosga ega bo'lib, unga o'troqlashgan chorvadorlar tomonidan asos solingan. Ularning ijtimoiy turmush tarzida saklarga xos madaniyat ustun bo'lgan. Shu sababdan ham ularning Behistun qoya tosh suratlaridagi tasvirida kiyimlari saklarniki bilan o'xshash bo'lgan deb xulosa bera olamiz. Bu tasvirda janubiy Xorazm vohasi aholisi tasviri berilmagan, chunki bu hududlar ahomoniylar imperiyasi tarkibiga kirmagan. Xorazmda tashkil topgan ilk davlatlar katta hududda emas, balki ma'lum sug'orish sistemalari mavjud hududlarda shakllangan. Qadimgi Xorazmda tashkil topgan ilk davlatchilik ikki xil asosda tashkil topgan va bu asos ularning keyingi davrlardagi taraqqiyotida ham o'z aksini topgan. Qadimgi Xorazmning keyingi davrlardagi tarixiy rivojlanishida ham uning hududida ikkita davlat mavjud bo'lganligi ko'rsatuvchi yozma manbalar va arxeologik tadqiqot ishlari mavjud. Xorazm vohasida markazlashgan davlat tashkil topgandagina butun Xorazm vohasi birlashtirilgan va Xorazmshohlar doimo o'z hududida yagona davlatni tashkil qilish uchun kurash olib borganlar.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Туркий Кенгашининг видеоконференция шаклида ўтказилган саммитидаги нутқи. // Халқ сўзи. № 65. 1 апрель. 2021.
2. Арриан Филавий. Поход Александра. Пер. М.Е.Сергеев, вступ. ст. Крюгера О.О. – СПб: Алетейя, 1993, – 386 с.
3. Беруний Абу Райхон. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. – Тошкент: Фан, 1968. – 488 б.
4. Геродот. История в девяти книгах. Пер. и примеч. Г.А. Стратановского. – Ленинград: Наука, 1972. – 600 с.
5. Geiger W. Ostiranische Kultur im Altertum. -Erlangen.1882.
6. Диодор Сицилийский. Историческая библиотека. Перевод. Д.В. Мещанский, М.Огинский и др. 2.1.6.2. www. simposium.ru.
7. Аскарлов А. Қадимги Хоразм тарихига доир баъзи бир масалалар // Ўзбекистон этнологияси: янги қарашлар ва ёндошувлар. –Тошкент. 2004. –Б.76-84.
8. Баратов С.Р. Некоторые проблемы археологических исследований древних культур Хорезма. // Ўзбекистон тарихи. № 4. 2007. – С. 22 – 34.
9. Вайнберг Б.И. Этнография Турана в древности. VII век до н.э. – VIII век н.э. – Москва: Восточная литература, 1999. – 360 с.
10. Воробьева М.Г. Проблема “ Большого Хорезма” и археология. // Этнография и археология Средней Азии. – Москва: Наука, 1979. – С. 38– 42.
11. Дьяконов И.М. Образ Сиявуша в среднеазиатской мифологии // Краткие сообщения Института материальной культуры АН СССР. Вып. XI. —М., 1951.
12. Дьяконов И.М. История Мидии от древнейших времен до конца IV века до н.э. I книга. – Баку: Нагил Еви, 2012. – 186 с.
13. Доватур А.И., Калистов Д.П., Шишова И.А. Народы нашей страны в “Истории” Геродота. Тексты, переводы и комментарии. —М.: “Наука”, 1982.
14. Дьяконов И. М. Восточный Иран до Кира. (К возможности новых постановок вопроса) . / в кн: История Иранского государства и культуры. –М.,1971.
15. Пьянков И.В. Хорасмий Гекатея Милетского. // ВДИ. 1972. № 2. – 3 – 21.
16. Куклина И.В. Аракс Геродота. История вопроса. // В кн.: Археологический сборник, XXIII. —Л., 1983.
17. Egamberdiyeva N.A. Amudaryo havzasi hududlarining qadimgi madaniyati (mil.avv. VIII-mil. IV asrlar). –Tashkent. 2020.
18. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – Москва: Наука, 1962. – 324 с.
19. Ягодин В.Н. Генезис и формирование раннехорезмийской государственности. / История государственности Узбекистана. В 3-х т. Т. I. /Авт. Э.В.Ртвеладзе, Д.А.Алимова и др. – Ташкент: Узбекистан, 2009.
20. Ягодин В.Н. Генезис и формирование раннехорезмийской государственности. -С. 115;
21. Ягодин В.Н. Древний Хорезм и Центрально-азиатский урбанизационный процесс. //Тезисы докладов конференции “Возникновения и развития урбанизационных процессов в Центральной Азии”. –Самарканд, 1995.
22. Юсупов Х.Ю. Поселение эпохи поздней бронзы на Канга-гыре.//Скотоводы и земледельцы Левобережного Хорезма. — Москва: 1991.
23. Хлопин И.Н. Историческая география южных областей Средней Азии. – Ашхабад: Ылым, 1983. – 212 с.

boshlab, ma'naviy-axloqiy kompetensiyani shakllantirish, ijtimoiy munosabatlar madaniyatini rivojlantirish, refleksiv-metagnitiv o'sish va dunyoqarash transformatsiyasigacha bo'lgan izchil jarayonni qamrab oladi.

Birinchi bosqich – qadriyatlarni anglash va o'zlashtirish. Bu bosqichda talaba ma'naviy-axloqiy tushunchalarni shaxsiy hayot va kasbiy faoliyat uchun muhim tamoyillar sifatida qabul qiladi. Halollik, adolat, shukronalik, vafodorlik, mehribonlik, kamtarlik va sabr kabi sifatlarning mazmunini anglash talabaning keyingi rivojlanishi uchun poydevor bo'ladi. Agar qadriyatlar ongli ravishda o'zlashtirilmasa, ular xulq-atvorda barqaror namoyon bo'lmaydi. Shu sababli modelda qadriyatlarga oid muloqot, hikmatlar tahlili, badiiy-pedagogik matnlar, tarixiy misollar va refleksiv savollar muhim vosita sifatida qo'llanadi.

Ikkinchi bosqich – ma'naviy-axloqiy kompetensiyani shakllantirish. Bu bosqichda qadriyatlar amaliy ko'nikma va xulq-atvor sifatida namoyon bo'la boshlaydi. Talaba axloqiy vaziyatlarda qaror qabul qiladi, o'z fikrini asoslaydi, boshqalarning nuqtayi nazarini hurmat qiladi, adolati muloqotga kirishadi va o'z harakatining oqibatini baholaydi. Mazkur kompetensiya pedagogik kasb uchun ayniqsa muhim, chunki o'qituvchi o'z shaxsiy namunasi orqali o'quvchilarga ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchi bosqich – ijtimoiy munosabatlar madaniyatini rivojlantirish. Najmiddin Kubro merosida insonning kamoloti jamiyat bilan aloqadorlikda namoyon bo'ladi. Shaxsning ichki pokligi uning boshqalarga bo'lgan munosabatida, muloqot odobida, hamkorlikda, insonparvarlikda va fuqarolik mas'uliyatida ko'rinadi. Shu sababli talabalarda ijtimoiy-kommunikativ sifatlarni rivojlantirish ma'naviy tarbiyaning muhim ko'rsatkichi hisoblanadi.

To'rtinchi bosqich – refleksiv-metagnitiv rivojlanishni faollashtirish. Bu bosqichda talaba o'z xatosini ko'ra olish, uni tan olish, tuzatish, kelgusi rivojlanish maqsadini belgilash va o'z ustida ishlash ko'nikmalariga ega bo'ladi. Najmiddin Kubro ta'limotidagi tavba va o'zini tahlil qilish g'oyalari aynan shu bosqichning nazariy asosini tashkil etadi. Pedagogik amaliyotda bu bosqich portfoliolar, o'z-o'zini baholash varaqalari, refleksiv esselar va individual rivojlanish xaritalari orqali qo'llab-quvvatlanadi.

Beshinchi bosqich – dunyoqarash transformatsiyasi va komil inson idealiga yaqinlashish. Bu bosqichda talaba bilim, qadriyat, tajriba, refleksiya va ijtimoiy mas'uliyatni yagona hayotiy pozitsiyaga birlashtiradi. Komil inson ideali zamonaviy pedagogik ta'limda axloqiy mas'uliyatli, kasbiy kompetent, insonparvar, ijtimoiy faol va o'z ustida ishlaydigan shaxsni tarbiyalash maqsadi bilan uyg'unlashadi.

2-jadval. Ma'naviy rivojlanish blokida shakllantiriladigan ijobiy sifatlar va ularning salbiy muqobillari

Ijobiy sifat	Pedagogik mazmuni	Salbiy sifat	Tarbiyaviy xavf
Halollik	Rostgo'ylik, vijdonlilik va haqiqatga sodiqlik.	Yolg'onchilik	Ishonchning yo'qolishi va axloqiy beqarorlik.
Mas'uliyat	Vazifa va burchni ongli bajarish.	Mas'uliyatsizlik	Burchga loqaydlik, kasbiy sustlik.
Insonparvarlik	Boshqalarga hurmat, mehr va yordamga tayyorlik.	Shafqatsizlik	Inson manfaatiga befarqlik.
Kamtarlik	O'zini yuqori qo'yimaslik, oddiylik.	Kibr	Boshqalarni mensimaslik.
Sabr-toqat	Qiyinchilikni matonat bilan yengish.	Sabrsizlik	Shoshqaloqlik, hissiy beqarorlik.
Bag'rikenglik	Turli fikr va qarashlarni hurmat qilish.	Murosasizlik	Nizo va inkor kayfiyati.
O'zini nazorat qilish	Nafs, hissiyot va xatti-harakatni boshqarish.	Nafsga berilish	Hirs va impulsiv qarorlar.
Ilmga intilish	Bilim olish va o'zini rivojlantirishga ehtiyoj.	Johillik	O'rganishga befarqlik.